



O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

**Davlat umumta'lim maktablarida 2022/2023-o'quv yilining
dastlabki kunida o'tkaziladigan "Mustaqillik darsi" dan o'rin
olgan mavzularni o'qitishda foydalanish
tavsiya etilayotgan
TEZISLAR**

(davlat umumta'lim maktablarining pedagoglariga mo'ljallangan)

KIRISH

Mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik yangilanishning bugungi bosqichidagi eng muhim yo‘nalishlardan biri, bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir.

Mazkur jarayon ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalarda keng qamrovli, tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlarda o‘z ifodasini topadi. Ushbu islohotlar natijasida jamiyatda oila institutining o‘rni va nufuzini yuksaltirish hamda shaxs, ayniqsa, yoshlar hayoti va sog‘ligini muhofaza etishga qaratilgan ishlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab olindi.

Jumladan, yoshlarning jamiyatda tutgan o‘rni va ishtirokini yanada oshirish, band bo‘lmagan yoshlarga moddiy va ma‘naviy jihatdan yordam berish tizimini amalga oshirish, yoshlarning huquqiy, ijtimoiy, ma‘naviy-axloqiy manfaatlarini yaxshilash hamda ularni qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish borasidagi qonun hujjatlari takomillashtirilib borilmoqda.

Bugun xalqimizning tinch-osoyshta hayoti va ertangi kunga bo‘lgan ishonchining negizida Konstitutsiyamizda belgilangan tamoyil va huquqiy me‘yorlar yotganligini barchamiz tushunib yetdik. Milliy davlatchiligimizning chuqur ildizlari va dunyo mamlakatlarining konstitutsionalizm amaliyotini joriy etishdagi ilg‘or tajribasiga asoslangan holda rivojlanayotganligiga ham mana qariyb o‘ttiz yil bo‘ldi.

Fuqarolarimizning bugungi tinch-totuv hayoti va yurtimizda tarkib topgan barqarorlikni hech kim inkor eta olmaydi va har birimiz uni qadrlashimiz hamda asrashimiz darkor. Qonunimizda belgilangan siyosiy sohadagi asosiy vazifalardan biri xalqning boy turmush tajribasiga asoslangan holda Respublika aholisining milliy va madaniy an‘analariga, barcha ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning manfaatlariga mos keladigan haqiqiy demokratik prinsiplarni qaror toptirishdir. Darhaqiqat, konstitutsiyamiz bugungi kunda xalqimiz tomonidan erishgan yutuqlarimizning asosi va poydevoridir.

O‘zbekiston Respublikasining istiqboldagi bosh maqsadi insonparvar, demokratik, huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini bunyod etish hisoblanadi. Shu bois o‘zbek xalqi, O‘zbekistonda yashab mehnat qilayotgan barcha millat xalqlari, bu borada jamiyatning barcha sohalarida yangilanishlar qilmoqda va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirmoqdalar.

**Davlat umumta'lim maktablarida 2022/2023-o'quv yilining
dastlabki kunida o'tkaziladigan "Mustaqillik darsi" dan o'rin olgan
mavzularni o'qitishda foydalanish
tavsiya etilayotgan tezislar
O'QUV REJASI**


Joriy o'quv yilning birinchi kuni, ya'ni 5 sentyabr kuni davlat umumta'lim maktablarining barcha sinflarida dars mashg'ulotlari "**Mustaqillik darsi**" sifatida tashkil etilib, sinf rahbarlari hamda fan o'qituvchilari tomonidan o'qitiladi.

Jumladan, mazkur darslar boshlang'ich (1-4) va yuqori (5-11) sinflarda **1 soat** (45 daqiqa) hajmida tavsiya etilayotgan tezislardan foydalangan holda o'qitiladi (*boshlang'ich sinflar uchun 2 soatga, yuqori sinflar uchun 5 soatga mo'ljallangan namunaviy mavzurdan birini ixtiyoriy tanlagan holda, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga mavzu o'tib beriladi*).

BOSHLANG'ICH SINFLAR

t/r	Mavzular nomi	O'quv soati
1.	O'zbekiston – mening Vatanim	1
2.	Do'stlik, birodarlik va hamkorlik – insoniy qadriyat	1
Jami:		2

1. “O‘zbekiston – mening Vatanim”



Ushbu mavzu doirasida “**Vatan**” tushunchasi sharhlanadi, o‘quvchilarning Vatan haqidagi tasavvurlari boyitiladi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi jarayoni qisqa va sodda tilda taqdimot orqali tushuntirib beriladi.

O‘zbekiston davlatining **Prezidenti, ramzlari va timsollariga** oid tushunchalar beriladi, **davlat madhiyasi, gerbi va bayrog‘ining** qabul qilish tarixi, ularning timsoliy ahamiyatiga oid bilimlar beriladi. Dars jarayonida o‘quvchilarga o‘z davlatining ramzlari va timsollariga ehtirom ko‘rsatish, faxrlanish va g‘ururlanish his-tuyg‘ularini shakllanishiga muhim e‘tibor beriladi.



2. Do‘stlik, birodarlik va hamkorlik – insoniy qadriyat



Mazkur mavzu doirasida o‘quvchilarga “do‘stlik”, “birodarlik” va “hamkorlik” tushunchalari to‘g‘risida ma‘lumotlar beriladi. So‘ngra “millat” va “xalq” tushunchalari sharhlanadi.

O‘qituvchi asosan mustaqillik yillarida, ayniqsa keyingi besh yillikda mamlakatimiz hududida yashayotgan turli millatlar va elatlarning do‘stlik va hamkorligini rivojlanishi, Vatanimizda qanday millatlar yashashi, ta‘lim sohasida

turli tillarda faoliyat yuritayotgan maktablar faoliyati to‘g‘risida ma‘lumotlar beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan Vatanimizda millatlararo munosabatlar, millatlararo do‘stlik va hamkorlik sohasida amalga oshirilgan o‘zgarishlar, millatlararo do‘stlik va hamkorlikning insoniyat uchun muhim ahamiyati ochib beriladi.

Shuningdek, darsning ikkinchi qismida o‘quvchilarga “oila – maktab – mahalla” o‘zaro aloqalari va hamkorlik munosabatlari, keyingi yillarda oila, mahallar va ta‘lim sohasidagi islohotlar natijalari, davlat hokimiyati organlarining mahallabay asosida amalga oshirayotgan ishlari to‘g‘risida ma‘lumotlar beriladi.

Dars davomida sinfdagi o‘quvchilarning o‘zaro ahillikda va do‘stona aloqalarda bilim olishining ahamiyati to‘g‘risida didaktik va ta‘sirchan dars o‘tish usullari qo‘llaniladi.

Darsning asosiy mazmun-mohiyatini o‘quvchilar dunyoqarashiga “do‘stlik”, “birodarlik” va “hamkorlik”, millatlararo ahillik qadriyatlarini singdirish hisoblanadi.



YUQORI SINFLAR

t/r	Mavzular nomi	O'quv soati
1.	“Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oyasi asosida amalga oshiriladigan islohotlar mazmun-mohiyatini Konstitutsiyamizdagi shaxsiy huquq va erkinliklar nazdida tushunchalar berish	1
2.	“Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsad va ustuvor vazifalar” (<i>Siyosiy huquqlar misolida</i>)	1
3.	Yangi O‘zbekistonda inson qadri ustuvor (<i>Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar misolida</i>)	1
4.	“Uchinchi Renessans – ma’rifatli jamiyat sari!” (<i>Oila</i>)	1
5.	Yangi O‘zbekistonda bag‘rikenglik tamoyillari	1
Jami:		5

1. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oyasi asosida amalga oshiriladigan islohotlar mazmun-mohiyatini Konstitutsiyamizdagi shaxsiy huquq va erkinliklar nazdida tushunchalar berish



"TARAQQIYOT STRATEGIYASI"
MARKAZI


Konstitutsiyaning yoshlarda
mardlik, yurtga sadoqat, o‘zaro
do‘st – birodarlik tuyg‘ularini
yuksaltirishda ahamiyati beqiyos.
Unda jamiyatning barcha qatlamlari

singari voyaga yetmaganlarning ham barcha turdagi shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy huquq va erkinliklari kafolatlab qo‘yilgan.

Yashash huquqi. Har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir.

Shaxsiy daxlsizlik huquqi. Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.



Aybsizlik prezumpsiyasi. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o‘zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta‘minlab beriladi.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.


Hech kimda uning rozilgisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.

Turar joy daxlsizligi. Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanih va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari bironing turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas.

Fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi. Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.

Axborotdan foydalanish huquqi. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.



O'zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim.



Vijdon erkinligi. Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

2. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsad va ustuvor vazifalar” (Siyosiy huquqlar misolida)

Davlat va jamoat ishlarida ishtirok etish. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish **o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish**, shuningdek, davlat organlarining faoliyati ustidan **jamoatchilik nazoratini** rivojlantirish va takomillashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Yig‘ilishlar o‘tkazish huquqi. Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq **mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar** shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtayi nazaridagina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.

Jamoat birlashmalarida ishtirok etish huquqi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari **kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga** egadirlar.



Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas.

Murojaat qilish huquqi. Har bir shaxs bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan **murojaat qilish huquqiga ega**.

Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqilishi shart.

3. Yangi O‘zbekistonda inson qadri ustuvor *(Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar misolida)*


Mulkdor bo‘lish huquqi. Har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli.

Bankka qo‘yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.

Mehnat qilish huquqi. Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniş huquqiga egadir.

Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o‘tash tartibidan yoki qonunda ko‘rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.

Dam olish huquqi. Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to‘lanadigan mehnat ta‘tilining muddati qonun bilan belgilanadi.



Ijtimoiy ta‘minot olish huquqi. Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta‘minot olish huquqiga ega.

Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo‘yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo‘lishi mumkin emas.

Tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi. Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

Ta‘lim olish huquqi. Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta‘lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

Ijod erkinligi. Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi.

Sud orqali himoyalanih huquqi. Har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Teng huquqlilik. Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari

Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi.

Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir.

4. *“Uchinchi Renessans – ma’rifatli jamiyat sari!”* (Oila)

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega.

Ota-onalar va farzandlarning huquq va majburiyatlari. Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.



Ma’rifatli oila – jamiyat tayanchi: farzand tarbiyasida ota-onalar mas’uliyati oshirishda davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyigidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta‘minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarni rag‘batlantiradi.

Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat’iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli **farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.**

5. Yangi O‘zbekistonda Bag‘rikenglik tamoyillari

Diniy bag‘rikenglik madaniyati va konfessiyalararo muloqot. Diniy bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish zarurati. Milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish. Diniy bayramlarning shaxs tarbiyasidagi ahamiyati.

O‘zbek tili izohli lug‘atida bag‘rikenglikka **“masalaga keng ko‘lamda, ochiq ko‘ngillik bilan yondashish”**, — deya juda chiroyli ta’rif berilgan.

Ya’ni, bag‘rikenglik tushunchasi faqatgina bir yoki bir necha insonlar qalbidagi emas, balki butun bir xalq ko‘nglidagi ochiq ko‘ngillilikka ham daxldor tushuncha sifatida ifodalangan.



Bag‘rikenglik turli millat va elatlar vakillarini olijanob g‘oya va ezgu niyatlar yo‘lida hamkor va bahamjihat yashashga undaydi. Bag‘rikenglik vaqtga bog‘liq emas, makon tanlamaydi. Chegaralar unga to‘siq bo‘la olmaydi.

Bag‘rikenglik barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an‘analari rivojini istaydi. Bag‘rikenglik insonni irqi, jinsi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi hamda ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar, bir xilda teng ko‘rishga asoslanadi.

Aynan shu jihatdan yangi O‘zbekiston islohotlari nafaqat ichki muomalada, balki mamlakatimizning tashqi siyosatida ham xalqchil g‘oyalar ustuvorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Bundan chorak asr muqaddam YUNESKOga a'zo davlatlar tomonidan Parijda "Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi" qabul qilingan.

Dunyoning deyarli barcha davlatlarini o'zida mujassamlashtirgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti esa 1996-yilning dekabrda har yili 16-noyabrni "**Bag'rikenglik kuni**" deb nishonlashni e'lon qilgan. BMT Bosh Assambleyasining 2018-yildagi sessiyasida aynan O'zbekiston tashabbusi bilan "**Ma'rifat va diniy bag'rikenglik**" to'g'risidagi rezolyutsiya qabul qilingan.

Darhaqiqat, yurtimizda 130dan ortiq millat va elat vakillari yashamoqda, 140ga yaqin milliy-madaniy markazlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning o'z ona tili, o'z millati tarixi, o'z qadriyat va madaniyatini o'rganishiga shart-sharoit yaratish bag'rikenglikning bir ko'rinishidir.



E'tiborlisi shundaki, ushbu Milliy strategiya amalga oshishi natijasida ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha huquqiy, tashkiliy va mafkuraviy mexanizmlarning samarali tizimini, shuningdek, jamiyatda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirishga erishish ko'zda tutilgan. Yurtimizda barcha millat va elatlarning tili, madaniyati, urf-odat va an'analarini saqlash hamda rivojlantirish uchun qonuniy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, qonunlarda bag'rikenglik tushunchasidan foydalanishga e'tibor qaratilsa, ushbu amaliyot muayyan ijtimoiy guruhlarga nisbatan qaratilganiga diqqatni tortadi. Yoshlar siyosati, bola huquqi kafolati, nogironligi bo'lgan shaxslarga munosabat, vijdon erkinligi kabi muhim masalalarda bag'rikenglik tamoyilidan foydalanilgan.

"Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunda o'sib kelayotgan avlodni bag'rikenglikka hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash

yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishi deb ko‘rsatilgan. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 4-moddasida bolalarda bag‘rikenglik tuyg‘usini tarbiyalash bola huquqlarini himoya qilish bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishi sifatida qayd etilgan.



“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunga binoan, vijdon erkinligini ta‘minlashning asosiy ustuvorliklari, xususan, konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik va totuvlikni mustahkamlash, jamiyatda diniy bag‘rikenglikni ta‘minlashdan iborat deb belgilangan. Qayd etilganidek, bag‘rikenglik tushunchasi aholining deyarli har bir qatlamiga aloqador tushunchadir. Bag‘rikenglik tamoyili har bir jabhaga, har bir qalbg a aloqador tuyg‘u hisoblanadi.

(Tezislarga ijodiy yondashgan holda o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin).

Adabiyotlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –t.: “Adolat”, 2021 y.
- 2.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 2020 yil 23 sentyabr, O‘RQ-637-son.
- 3.2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi//<https://lex.uz/uz/docs/5841063>.
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020 y.// <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-30-09-2020>
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqi. 2020 y. 26 dekabr.// https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-ozbekiston-yoshlari-forumida-sozlagan-nutqi_197662.
- 6.Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston o‘qituvchi va murabbiylariga.29.09.2021 y.// <https://president.uz/uz/lists/view/4660>.
- 7.Prezident Sh.M.Mirziyoyevning Konstitutsiya qabul qilinganining 29 yilligi munosabati bilan xalqqa tabrigi. 07.12.2021 y.// <https://bugun.uz/2021/12/07/prezident-konstitutsiya-qabul-qilinga/>.
- 8.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Uchinchi nashri.-Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022.-440 b.

Internet ma’lumotlari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: www.edu.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi: www.uzedu.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz www.bimm.uz
4. Ijtimoiy axborot ta’lim portali: www.ziyonet.uz
5. Infocom.uz elektron jurnali: www.infocom.uz
6. www.gov.uz
7. www.press-service.uz.
8. www.kids.gov.uz

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 31 yillik bayramiga bag‘ishlangan marosimdagi nutqidan foydalanish tavsiya etiladi.

(Izoh: Mazkur “Mustaqillik darsi”dan o‘rin olgan mavzularni o‘qitishda foydalanish tavsiya etilayotgan tezislar namuna sifatida taqdim etilmoqda. Mavzularni o‘qitadigan o‘qituvchilar darslarga mustaqil va ijodiy yondashgan holda, mahalliy shart-sharoitlarni e’tiborga olgan holda o‘zgartishlar yoki qo‘shimchalar kiritishlari, o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib soddalashtirishlari mumkin).